INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VA KREATIV INDUSTRIYA IMKONIYATLARI: NAMANGAN XALQARO GULLAR FESTIVALI MISOLIDA

G‘iyosov Bahtiyorjon Yoqubjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
giyosovbahtiyorjon@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Namangan xalqaro gullar festivalining innovatsion rivojlanish istiqbollari tarixiylik va zamonaviylik kesimida tahlil qilinadi. Muallif festivalni raqamli identifikatsiya, multimedia hikoyachilik, smart-turizm, kreativ industriya, sun’iy intellekt xizmatlari va ijtimoiy tarmoq strategiyasi orqali boyitish yo‘nalishlarini ko‘rib chiqadi. Texnologiyaning festival mazmunini almashtirmasdan, uni chuqurlashtiruvchi vosita sifatidagi ro‘liga alohida urg‘u beriladi hamda uch bosqichli innovatsion rivojlanish konsepsiyasi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Namangan xalqaro gullar festivali, raqamli identifikatsiya, smart-turizm, kreativ industriya, madaniy kommunikatsiya, sun’iy intellekt xizmatlari, festival menejmenti.*

Аннотация: *В статье анализируются перспективы инновационного развития Наманганского международного фестиваля цветов в контексте историчности и современности. Автор рассматривает направления обогащения фестиваля посредством цифровой идентификации, мультимедийного сторителлинга, smart-туризма, креативных индустрий, сервисов искусственного интеллекта и стратегии социальных сетей. Особое внимание уделяется роли технологий не как замены, а как инструмента углубления культурного содержания фестиваля; предлагается трёхэтапная концепция инновационного развития.*

Ключевые слова: *Наманганский международный фестиваль цветов, цифровая идентификация, смарт-туризм, креативная индустрия, культурная коммуникация, сервисы искусственного интеллекта, менеджмент фестиваля.*

Abstract: *This article examines the prospects for innovative development of the Namangan International Flower Festival at the intersection of historicity and modernity. The author explores directions for enriching the festival through digital*

identification, multimedia storytelling, smart tourism, creative industries, artificial intelligence services, and social media strategy. Particular emphasis is placed on technology's role as a means of deepening cultural content rather than replacing it, and a three-stage concept of innovative development is proposed.

Keywords: *Namangan International Flower Festival, digital identification, smart tourism, creative industry, cultural communication, artificial intelligence services, festival management.*

Namangan xalqaro gullar festivalini tarixiylik va zamonaviylik kesimida tadqiq etishning uchinchi bosqichi festivalni zamonaviy madaniy boshqaruv, raqamli kommunikatsiya, kreativ industriya va turistik obrazlash mexanizmlari bilan uyg‘un holda baholashni talab etadi. Chunki bugungi ommaviy bayram o‘zining ta’sir doirasini faqat bayram maydoni, sahna yoki ko‘rgazma hududi bilan cheklab qo‘ymaydi, u raqamli tarmoqlar, vizual kontent, onlayn sharhlar, mobil navigatsiya, elektron xizmatlar, xalqaro axborot oqimi va foydalanuvchi tajribasi orqali davom etadigan murakkab madaniy-kommunikativ tizimga aylanadi. Shu jihatdan Namangan xalqaro gullar festivali ham an’anaviy gulchilik madaniyati va xalq sayli shakllarini saqlagan holda, zamonaviy raqamli madaniyatning yangi vositalari bilan boyitilishi zarur bo‘lgan strategik hodisadir.

U.Qoraboyev bayramlarni xalq hayotining eng yorqin, eng quvonchli va ijtimoiy jihatdan ta’sirchan ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflaydi[1]. Darhaqiqat, bayramlar xalqning ma’naviy holati, qadriyatlar tizimi, o‘ziga xos yashash tarzi va estetik didini namoyish etuvchi ijtimoiy ko‘zgudir.

Festivalning innovatsion rivojlanishida birinchi muhim yo‘nalish raqamli identifikatsiya va axborot navigatsiyasidir. Namangan xalqaro gullar festivalida mehmonlar sonining ortishi, festival hududlarining kengayishi, ko‘rgazma obyektlarining ko‘payishi va xorijiy turistlar ishtirokining kuchayishi sharoitida oddiy banner, og‘zaki e’lon yoki sahna boshlovchisining ma’lumoti yetarli bo‘lmay qoladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish festivalning multimedia va OAV hikoyachiligini shakllantirishdir. Hozirgi kunda festivalni targ‘ib qilishda afisha, telelavha yoki qisqa reportajlar ham muhimdir. Festivalga aloqador ma’lumotlarni OAV da to‘g‘riligi ham muhimdir. Sh.A.Usmonovaning mediada til foydalanishining zamonaviy yo‘nalishlari haqidagi “Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari” nomli dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillari materialida tadqiq etilgan. U mediadiskursda doimo ikki qarama-qarshi

[1] Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – B. 3.

tendensiya mavjudligini empirik tarzda ko‘rsatadi: bir tomondan, axborotni qisqartirish va aniqlik talabi, ikkinchi tomondan esa emotsional ta’sir va ifodaviylik talabi.

Uchinchi yo‘nalish - festivalni smart-turizm modeli asosida rivojlantirishdir. Smart-turizm deganda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ma’lumotlar tahlili, mobil xizmatlar, raqamli xaritalar va foydalanuvchi tajribasini boshqarish orqali turistik jarayonni qulaylashtirish tushuniladi. Turizm menejmentida axborot texnologiyalari o‘sha hududda keng qo‘llanilganligi turist tanlovini, xizmatlar sifatini va sayohatgoh manzillarning raqobatbardoshligini u yoki bu tomonga o‘zgartirib yuborishini ko’rishimiz mumkin. Namangan xalqaro gullar festivalida ham mehmonlarning kelish yo‘nalishlari, transport oqimi, mehmonxona bandligi, ovqatlanish nuqtalari, ko‘rgazma hududlari, fotozonalar, tibbiy yordam, xavfsizlik va volontyorlik xizmatlari yagona raqamli tizimda ko‘rsatilishi festivalning boshqaruv sifatini oshiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish festivalda kreativ industriya imkoniyatlarini ishga solishdir. Kreativ industriya san’at, dizayn, reklama, media, hunarmandchilik, moda, landshaft arxitekturasi, raqamli kontent va tajriba dizaynini iqtisodiy qiymatga aylantiradigan soha sifatida zamonaviy madaniyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. R.Florida kreativ sinfning shahar rivojlanishidagi rolini asoslar ekan, ijodiy muhit, ochiqlik, innovatsion tafakkur va madaniy xilma-xillik hududiy rivojlanishning muhim sharti ekanini ko‘rsatadi[2]. Namangan gullar festivali esa gul dizayni, floristik kompozitsiya, milliy liboslar namoyishi, hunarmandchilik yarmarkasi, suvenir mahsulotlari, landshaft dizayni va media kontent orqali kreativ iqtisodiyotga aylanish imkoniyatiga ega.

Beshinchi yo‘nalish festivalning sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan axborot xizmatlari bilan boyitilishidir. Bunda gap festivalning mazmunini sun’iy ravishda almashtirish haqida emas, balki ishtirokchi va mehmonlarga qulay axborot xizmatlarini yaratish haqida boradi. Masalan, ko‘p tilli chat-bot, ovozli gid, marshrut tavsiyasi, savol-javob tizimi, mehmonlar oqimi tahlili, kontent tavsiyalari, ijtimoiy tarmoq monitoringi va avtomatik tarjima xizmatlari festival tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. O‘zbek tilidagi nutq va matn texnologiyalari bo‘yicha B.Akmuradov tadqiqoti milliy tilning raqamli muhitda ishlashi uchun algoritmik yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi[3]. Bu xulosa festivalning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha raqamli kommunikatsiyasini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

[2] Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2002. – P. 1–35.

[3] Akmuradov B.U. O‘zbek tilidagi matnlar uchun nutqni sintez qilish usullari va algoritmlari: texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 65–93.

Oltinchi yo‘nalish festivalning ijtimoiy tarmoq strategiyasidir. Bugungi kunda madaniy tadbirning real auditoriyasi festival hududiga kelgan odamlar bilan cheklanmaydi; uning ikkinchi auditoriyasi ijtimoiy tarmoqlardagi tomoshabinlar, sharhlovchilar, kontent yaratuvchilar, blogerlar va potensial turistlardan iborat bo‘ladi. A.Kaplan va M.Haenlein ijtimoiy medialarni foydalanuvchi kontenti hamda interaktiv kommunikatsiya asosida shakllanuvchi platformalar sifatida talqin qiladi[4]. Demak, Namangan gullar festivali ijtimoiy tarmoqlarda tasodifiy fotosuratlar to‘plami sifatida emas, balki oldindan rejalashtirilgan vizual identitet, hashtag tizimi, rasmiy sahifa, jonli efir, qisqa videolar, foydalanuvchi hikoyalari va xalqaro auditoriya uchun mos kontent orqali namoyon bo‘lishi kerak.

Festivalni innovatsion rivojlantirishda ehtiyotkorlik zarur bo‘lgan jihat ham mavjud: raqamlashtirish an’anaviy mazmunni siqib chiqarmasligi kerak. Ba’zan zamonaviy texnologiya bayramning mohiyatini kuchaytirish o‘rniga uni tashqi effektlar bilan qoplab yuborishi mumkin. Shu sababli har qanday texnologik yangilik festivalning asosiy madaniy maqsadiga xizmat qilishi lozim: tarixiy xotirani anglatish, milliy qadriyatlarni namoyon etish, mahalliy an’anani tushuntirish, shahar obrazini mustahkamlash, turistik tajribani qulaylashtirish va O‘zbekiston imijini boyitish. E.Hobsbawm an’analar ko‘pincha zamonaviy sharoitda qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi. Biroq bunday qayta talqin sun’iy dekor emas, mazmunli davomiylik bo‘lishi kerak[5].

Institutsional yondashuv festivalni yillik tadbirdan doimiy madaniy loyiha darajasiga olib chiqadi. Masalan, yil davomida “Gul madaniyati akademiyasi”, “Yosh floristlar maktabi”, “Festival volontyorlari klubi”, “Namangan floral design laboratoriyasi”, “Raqamli festival arxivi”, “Gullar shahri” turistik marshruti va “Festival tadqiqot markazi” kabi yo‘nalishlar tashkil etilishi mumkin. Bular festivalning ilmiy, ta’limiy, iqtisodiy va turistik salohiyatini kengaytiradi.

Festival innovatsiyasining muhim tarkibiy qismi xavfsizlik va qulaylikdir. Ommaviy tadbirda inson oqimi, bolalar xavfsizligi, yo‘l-transport yuklamasi, yo‘qolgan buyumlar, favqulodda holat, tibbiy yordam, ob-havo o‘zgarishi va axborot yetishmovchiligi kabi omillar ishtirokchi tajribasiga ta’sir qiladi. Mobil ilova yoki rasmiy telegram-bot orqali xarita, favqulodda aloqa, tibbiy punkt, yo‘qolganlar markazi, transport jadvali va muhim e’lonlar berilishi festivalni xavfsizroq va

[4] Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media // Business Horizons. – 2010. – Vol. 53, №1. – P. 59–68.

[5] Hobsbawm E. Introduction: Inventing Traditions // The Invention of Tradition / eds. E. Hobsbawm, T. Ranger. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 1–14.

tartibliroq qiladi. Aqilli manzil (Smart-destination) nazariyasida ham texnologiyalar turistik hududni boshqarish, xizmatlarni muvofiqlashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash vositasi sifatida qaraladi[6].

Namangan xalqaro gullar festivalining innovatsion modeli quyidagi tamoyillarga tayanishi maqsadga muvofiq: birinchidan, milliy mazmun ustuvorligi; ikkinchidan, texnologiyaning xizmatkorlik roli; uchinchidan, ishtirokchi tajribasining qulayligi; to‘rtinchidan, ko‘p tillilik va ochiqlik; beshinchidan, ekologik-ma’rifiy yo‘nalish; oltinchidan, ma’lumotga asoslangan boshqaruv; yettinchidan, mahalliy kreativ iqtisodiyotga turtki berish; sakkizinchidan, festival arxivini shakllantirish. Bu tamoyillar tarixiylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Shu asosda Namangan xalqaro gullar festivalining innovatsion rivojlanish konsepsiyasi uch bosqichda tasavvur etilishi mumkin. Birinchi bosqich bazaviy raqamlashtirish: rasmiy veb-sahifa, QR-kodlar, ko‘p tilli ma’lumotlar, ijtimoiy tarmoq strategiyasi, elektron xarita. Ikkinchi bosqich integratsiyalashgan xizmatlar: mobil ilova, audio-gid, volontyorlar platformasi, mehmonlar monitoringi, turistik marshrutlar. Uchinchi bosqich smart festival modeli: AI yordamchi, AR/VR ko‘rgazma, raqamli arxiv, ma’lumotlar tahlili, xalqaro marketing va kreativ industriya laboratoriyasi. Bunday bosqichlilik festivalni birdaniga murakkab tizimga aylantirish emas, balki izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur yondashuvning ilmiy ahamiyati shundaki, u Namangan xalqaro gullar festivalini oddiy ommaviy bayram emas, balki madaniy xotira, shahar obrazi, kreativ iqtisodiyot, raqamli kommunikatsiya va xalqaro imij kesishgan kompleks madaniy tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi. Festivalda texnologiya maqsad emas, balki madaniy mazmunni chuqurlashtiruvchi vosita bo‘lishi kerak. Shu ma’noda innovatsion rivojlanish tarixiylikni inkor etmaydi, aksincha, uni zamonaviy auditoriya uchun tushunarli, jozibali, interaktiv va xalqaro miqyosda taniladigan shaklga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Namangan xalqaro gullar festivalining zamonaviy bosqichdagi istiqboli uning raqamli va kreativ imkoniyatlarini to‘g‘ri boshqarishga bog‘liq. Agar festival QR-gid, ko‘p tilli audio izoh, mobil xarita, ijtimoiy tarmoq kampaniyasi, raqamli arxiv, smart-turizm servislari, ekologik ma’rifat va kreativ industriya bilan uyg‘unlashtirilsa, u Namangan shahrining madaniy qiyofasini mustahkamlash bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro madaniy-turistik imijiga ham xizmat qiladi. Bunda asosiy mezon zamonaviylikning tashqi effekt emas, tarixiylikni anglash va qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazish vositasi bo‘lishidir.

[6] Landry C. The Creative City: A Toolkit for Urban Innovators. – London: Earthscan, 2000. – P. 9–29.

Namangan xalqaro gullar festivalining innovatsion rivojlanishi raqamli identifikatsiya, multimedia hikoyachilik, smart-turizm modeli, kreativ industriya, sun’iy intellekt xizmatlari, ijtimoiy tarmoq strategiyasi, tizimli monitoring hamda ekologik-ma’rifiy ma’rifat yo‘nalishlarini birga olib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraboyev U. O‘zbekiston bayramlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 240 b.

2. Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2002. – 35 p.

3. Akmuradov B.U. O‘zbek tilidagi matnlar uchun nutqni sintez qilish usullari va algoritmlari: texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022. – 138 b.

4. Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media // Business Horizons. – 2010. – Vol. 53, №1. – 68 p.

5. Hobsbawm E. Introduction: Inventing Traditions // The Invention of Tradition / eds. E. Hobsbawm, T. Ranger. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 14 p.

6. Landry C. The Creative City: A Toolkit for Urban Innovators. – London: Earthscan, 2000. – 29 p.